



IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 280 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Omborxonada wms tiziminidan foydalanishni afzalliklari.....	16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по ерс-контрактам.....	21
Махмудов Сардор Козим угли	
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili	27
Abduvohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati.....	34
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	36
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде	39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев	
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish	49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi	
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari	52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellash (Surxondaryo viloyati misolida)	56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich	
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili.....	58
Lapasova Kamola Farhod qizi	
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati"	63
Abdiraimov Abbas Xolmurod O'g'li	
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar	67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili	72
Raximov Ilyos Muydinovich	
Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar	75
Raximov Shoxrux Furqatovich	
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari	78
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Ta'minot zanjirini optimallashtirish yo'llari.....	82
Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
The role of global value chains in international trade competition.....	85
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	
Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития.....	88
Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи	



Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches.....	90
Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Qudratov Inomjon Nemat ugli	
Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi.....	93
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish.....	97
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Chakana savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish	102
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Abdullayev Firdavs Sanjar o'g'li, Ravshanova Muxtarama	
Zamonaviy shahar massivlarida xizmat ko'rsatish va boshqarishda "Aqlli shahar" konsepsiyasi	105
Ismailov Najmiddin Ilxamovich	
Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari.....	108
Nuriddinov G'ulomiddin Ziyovuddin o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirida CPFR texnologiyasi foydalanishni afzalliklari.....	111
Komilov Muhammad Yusuf Sardorbek o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirlarini qo'llashda jahon tajribasi.....	115
Karimov Amirxon Anvarovich, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Sug'urtada investisiya faoliyatini tashkil etishni huquqiy asoslari	118
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Yurtimizda amaldagi budjetlararo munosabatlar tartibi, hisobi hamda uning afzalliklari	122
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari shakllanishining xorij tajribalari	127
Bobonov N.H.	
Способ организации продуктивной работы преподавателя и его влияние на результативность	131
Гулнора Казимова	
Literature is a reflection of the soul and culture of humanity	136
Sayidova Sayyora Yorikulovna	
Turizm infratuzilmasida transport xizmatlarini integratsiyalash: muammo va yechimlar	140
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar	142
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	145
Umida Kakhramonova Gayratovna	
Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	149
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida mulkni qayta baholash va unga yetkazilgan moddiy zararni aniqlash.....	153
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
Shahar aglomeratsiyasining sifatini ekologik va geologik mezonlar asosida kompleks baholash.....	155
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Sanoatda korxonalarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash	160
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy tengsizliklarni kamaytirish usullari.....	165
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Tog' yon bag'rida joylashgan kon uymlarini ochiq usulda qazib olish xususiyatlari.....	174
I.T. Mislibayev, M.Sh. Ochilova	
Milliy iqtisodiyotda turizmning o'rni va rivojlanish imkoniyatlari.....	176
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna	
China insurance market experience	178
Jumaboyev Akmal Sheraliyevich	



Tijorat banklarida moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari.....	181
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Bank tizimida buxgalteriya hisobotlarida axborot texnologiyalarining roli va rivoji.....	185
Sodiqov Sanjar Saydullo o'g'li	
Samarali loyiha risklarini boshqarish: nazariya va amaliyot.....	189
Nosirova Gulira'no Abdulaziz qizi	
XXI-asrda Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti: sohaviy islohotlar, yutuqlar va muammolar tahlili.....	192
D.E.Qarshiyev	
Boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish xo'jalik yurituvchi subyektlarda natijadorlikka erishishning muhim omilidir	195
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
Eksportga chiqariladigan mahsulotlar uchun zamonaviy qadoqlashning ahamiyati va tendensiyalari	201
Xidirov Shohrux Bobur o'g'li	
Усовершенствование подходов к управлению проблемными кредитами в коммерческих банках узбекистана	205
Улмасой Хусан кизи Ахмедова	
Sug'urtada investitsiya faoliyatini obyekt va predmeti	208
D.E.Qarshiev	
O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik sohasida istiqbollari.....	211
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Sug'urtada anderryayting xizmatini xorij tajribasidan foydalanish.....	213
D.E. Qarshiev	
Важность проекта «умный город» в узбекистане	216
Акбаржон Иминов	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	218
Акбарjon Iminov	
Moliyaviy faoliyat natijalari hisobini takomillashtirishda tahlilning o'rni.....	220
Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li	
Temir yo'l va intermodal transport tizimining rivojlanishi: investitsiyalar, xarajatlar va samaradorlik tahlili.....	226
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ahamiyati.....	230
S.J. Yangiboev	
Korporativ boshqaruv va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik: davlat ishtirokidagi korxonalar misolida.....	234
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
“Sanoat korxonalarida zamonaviy loyiha menejerining asosiy kompetensiyalar modelini ishlab chiqish”	238
Axmedov Daniyar Sabirovich, Valiyev Shamsiddin Eshpulatovich	
Turizmdagi shartnoma munosabatlari: turoperatorlar, turagentlar, turistik xizmatlar iste'molchilari.....	241
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
“Разработка модели ключевых компетенций современного менеджера проекта в промышленных предприятиях”	243
Ахмедов Данияр Сабирович, Научный руководитель	
Xorijiy tajriba asosida o'zbekistonda oliy ta'lim akademik boshqaruvini takomillashtirish	249
Muxamedova Moxigul Xusanovna	
The role of international institutions in accelerating green finance	253
Qudratov Inomjon Nemat o'g'li	
Barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish	257
Xudayberdieva Dilnoza Egamberdiyevna	
Indicators and criteria of women's sustainable employment in the context of economic growth.....	262
Kholiyorova Shokhista Kahramon kizi	
Qishloq xo'jaligi sohasida “Salam” maxsus savdo shartnomalaridan foydalanish istiqbollari.....	267
Xoliyrov Xomid	



Davlat xaridlarida kichik biznesning ortib borishi va uning umumiy tizimdagi o'рни	269
Majidov Nizom Baxramovich	
Davlat qarzlarini qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish va tashqi xatarlardan himoyalash yo'nalishlari	273
Sayfuddinov Xasanboy Dilshodovich	
Xalqaro moliya institutlaridan investitsiyalarni jalb qilishning ahamiti	277
Tolibov Shoxrux Muminovich	



XALQARO MOLIYA INSTITUTLARIDAN INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING AHAMITI

Tolibov Shoxrux Muminovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining

Davlat xizmatchilari faoliyatini monitoring qilish va baholash departamenti bosh inspektori

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro moliya institutlari orqali investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyati, ularning rivojlanayotgan davlatlar, xususan O'zbekiston iqtisodiyotidagi roli va samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Muallif tomonidan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi institutlarning investitsiyaviy faoliyati, moliyaviy resurslardan foydalanish mexanizmlari, hamkorlik natijalari va mavjud muammolar tahlil etilgan. Shuningdek, sohani yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan institutsional va strategik yondashuvlar yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya institutlari, investitsiya, O'zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, moliyaviy barqarorlik, islohotlar, texnik yordam.

Abstract: This article explores the economic significance of attracting investments through international financial institutions, with a particular focus on their role and effectiveness in developing countries, especially Uzbekistan. The author analyzes the investment activities of institutions such as the World Bank, the Asian Development Bank, and the Islamic Development Bank, including mechanisms of financial resource utilization, cooperation outcomes, and existing challenges. Furthermore, the paper presents institutional and strategic proposals to enhance the development of this sector.

Key words: international financial institutions, investment, Uzbekistan, economic development, infrastructure, financial stability, reforms, technical assistance.

Аннотация: В данной статье рассматривается экономическая значимость привлечения инвестиций через международные финансовые институты, с акцентом на их роль и эффективность в развивающихся странах, в частности в Узбекистане. Автор проводит анализ инвестиционной деятельности таких организаций, как Всемирный банк, Азиатский банк развития и Исламский банк развития, включая механизмы использования финансовых ресурсов, результаты сотрудничества и существующие проблемы. Также представлены конкретные институциональные и стратегические предложения по дальнейшему развитию данной сферы.

Ключевые слова: международные финансовые институты, инвестиции, Узбекистан, экономическое развитие, инфраструктура, финансовая стабильность, реформы, техническая помощь.

Globalizatsiya va iqtisodiy o'zaro bog'liqlik kuchayib borayotgan hozirgi davrda xalqaro moliya institutlari orqali investitsiyalarni jalb qilish har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim strategik omilga aylanmoqda. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohalarini isloh qilish va texnologik yangilanishni jadallashtirish kabi vazifalarni bajarishda tashqi moliyaviy manbalarning, ayniqsa, xalqaro moliya institutlari ko'magining o'rni beqiyosdir.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi yirik institutlar nafaqat moliyaviy resurslar bilan, balki texnik yordam, institutsional salohiyatni oshirish va davlat boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha konsalting xizmatlari orqali ham hamkorlik qiladi. Ular tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlar va grantlar mahalliy budjetga bosimni kamaytirib, strategik loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu institutlar belgilaydigan shartlar va standartlar milliy iqtisodiyotda islohotlarni jadallashtirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash hamda korrupsiyaga qarshi kurashda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tezisda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning iqtisodiy ahamiyati, investitsiyaviy oqimlarga ta'siri, ularning rivojlanayotgan davlatlardagi ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilishi hamda O'zbekiston tajribasi misolida ushbu hamkorlikning samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilinadi. Shu asosda, maqola mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli strategiyasida xalqaro moliyaviy hamkorlikni mustahkamlash zaruratini asoslab beradi.



Xalqaro moliya institutlari (XMI) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim tashqi moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning asosiy vazifasi a'zo mamlakatlarga makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, institutsional salohiyatni oshirish, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish va qashshoqlikni kamaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarda yordam ko'rsatishdan iboratdir. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlar orqali investitsiyalarni jalb qilish nafaqat moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondiradi, balki tizimli islohotlarni ilgari surish uchun zarur texnik va konsalting yordamni ham taqdim etadi.

Birinchidan, XMI orqali jalb etilayotgan investitsiyalar rivojlanayotgan davlatlar uchun uzoq muddatli kapital manbaidir. Bu mablag'lar, odatda, past foizli, uzoq muddatli va kechiktirilgan to'lovli shartlarda ajratiladi. Aynan ushbu imtiyozli shartlar davlat budjeti uchun moliyaviy yukni kamaytiradi, budget barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. O'zbekiston tajribasiga murojaat qilsak, so'nggi yillarda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlari orqali ko'plab yirik loyihalar – energetika, transport, sog'liqni saqlash, irrigatsiya va ta'lim sohalarida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida, Osiyo taraqqiyot bankining Andijon viloyatida ichimlik suvi tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha 2022-yilda ajratgan \$162 millionlik imtiyozli krediti aholi salomatligini yaxshilashga ham, mahalliy infratuzilmani yangilashga ham xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro moliya institutlari investitsiyalari odatda monitoring va baholash tizimi orqali nazorat qilinadi. Bu esa investitsiya samaradorligini oshirish, korrupsion risklarni minimallashtirish va mablag'lardan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi. Har bir loyiha doirasida texnik-iqtisodiy asoslash, atrof-muhitga ta'sirni baholash, tender jarayonlarining shaffofligi va ijrochilarning malakasi yuqori darajada tekshiriladi. Ushbu yondashuv mahalliy boshqaruv organlariga ham tanqidiy tahlil, hisobot berish va natijadorlikni oshirish madaniyatini singdiradi. Masalan, Jahon banki ko'magida amalga oshirilgan "Qishloq suv ta'minoti va sanitatsiyasi" loyihasi jarayonida bir nechta viloyatlarda suv ta'minoti tizimlari rekonstruksiya qilinib, loyiha monitoringi orqali jamoatchilik ishtiroki ta'minlangan.

Uchinchidan, XMI investitsiyalarining ijtimoiy yo'naltirilganligi muhim ahamiyatga ega. Ular, odatda, barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM) bilan uzviy bog'langan holda shakllantiriladi. Bu orqali nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki ijtimoiy tenglik, atrof-muhitni muhofaza qilish, ayollar huquqlarini kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kabi masalalar ham hal qilinadi. Misol uchun, Islom taraqqiyot bankining O'zbekistondagi "Ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish" loyihasi yordamida minglab ayollar o'z bizneslarini boshlash uchun moliyaviy va konsultativ yordam oldilar. Bu esa jamiyatda inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

To'rtinchidan, XMI orqali jalb etilgan investitsiyalar milliy iqtisodiyotda islohotlarning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ular odatda hukumat oldiga muayyan institutsional yoki fiskal majburiyatlarni qo'yadi. Masalan, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, moliyaviy sektorni liberallashtirish, bojxona va soliq tizimini takomillashtirish, davlat xaridlarini shaffolashtirish kabi talablar orqali XMI investitsiyalari islohotlarning sustlashib qolmasligini kafolatlaydi. Jahon bankining O'zbekistonda budget jarayonlarini ochiqashtirish bo'yicha loyihasi doirasida davlat xarajatlarining jamoatchilik uchun ochiqdigi ta'minlanib, budget siyosati ustidan fuqarolik nazorati kuchaytirildi.

Beshinchidan, xalqaro moliya institutlari tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar mahalliy biznes va xususiy sektor uchun ham imkoniyatlar yaratadi. Loyihalar doirasida mahalliy pudratchilar, yetkazib beruvchilar, konsalting kompaniyalari jalb etiladi. Shuningdek, xususiy sektor bilan davlat hamkorligiga (PPP) asoslangan loyihalar moliyaviy risklarni bo'lishishga yordam beradi. Masalan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan qo'llab-quvvatlangan Toshkent shahrida chiqindilarni qayta ishlash loyihasi davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat ekologik muammolarni hal qiladi, balki yangi ish o'rinlarini yaratadi, texnologik modernizatsiyani jadallashtiradi.

Oltinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar orqali olib kiriladigan investitsiyalar mamlakat reytinglariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro reyting agentliklari – Moody's, Fitch, S&P – mamlakatning kredit reytingini baholashda XMI bilan hamkorlik darajasiga ham e'tibor qaratadi. Yuqori reytinglar esa yangi investorlar, xalqaro kapital bozorlariga chiqish va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. 2023-yilda Fitch Ratings O'zbekistonning kredit reytingini barqaror deb baholagan bo'lib, bu holat XMI bilan faol hamkorlik qilayotganining natijasi sifatida qayd etilgan.

Yettinchidan, XMI orqali kelayotgan investitsiyalar zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasini olib kiradi. Loyiha doirasida xorijiy ekspertlar, texnologiyalar va ilg'or yondashuvlar milliy infratuzilmaga integratsiyalanadi. Bu, ayniqsa, sog'liqni saqlash, energetika, suv ta'minoti va raqamli boshqaruv sohalarida sezilarli samara beradi. Misol uchun, Jahon banki orqali O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida raqamli tizimlar joriy etilib, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati oshirildi.

Biroq, xalqaro moliya institutlari investitsiyalarining samaradorligi ularni to'g'ri rejalashtirish, yuksak darajadagi muvofiqlashtirish va professional loyiha boshqaruviga bog'liqdir. Mablag'larni maqsadsiz ishlatish, byurokratik to'siqlar, loyihalarning kechikishi va monitoring tizimining zaifligi ularning natijadorligini pasaytiradi.



Shuning uchun davlat organlari va XMI o'rtasida ochiq, shaffof, mas'uliyatli hamkorlik madaniyatini shakllantirish juda muhimdir.

Shuningdek, ushbu institutlardan olinadigan mablag'lar xorijiy qarzning ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ularning fiskal barqarorlikka ta'sirini oldindan baholash, qarz xizmatini nazorat qilish, hamda qaytarilish mexanizmlarini aniq belgilab olish zarur. O'zbekiston tajribasida 2020-yildan boshlab davlat tashqi qarzini cheklash bo'yicha qator normativ hujjatlar qabul qilindi. Bu xalqaro moliyaviy majburiyatlar bajarilishini kafolatlash bilan birga, budjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamdir.

Xalqaro moliya institutlari orqali investitsiyalarni jalb qilish rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib qolmoqda. Bu institutlar nafaqat moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi, balki zamonaviy boshqaruv tamoyillari, texnologik yondashuvlar va institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlash orqali milliy taraqqiyotga ko'maklashadi. Ular tomonidan ajratilayotgan mablag'lar orqali ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson kapitalini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarni samarali boshqarish, monitoring qilish va tahlil etish institutlarining kuchli tizimlarga ega bo'lishi xalqaro hamkorlikdan kutilayotgan natijalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu sohadan maksimal darajada samaradorlik olish uchun bir nechta muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Avvalo, har bir xalqaro moliyaviy bitimni mahalliy rivojlanish strategiyalari bilan muvofiqlashtirish, ularning budjetga va qarz barqarorligiga ta'sirini puxta tahlil qilish zarur. Mahalliy loyihalarni xalqaro moliya institutlari talablariga mos ravishda ishlab chiqish, texnik-iqtisodiy asoslash va atrof-muhitga ta'sirni baholash sifatini oshirish orqali jalb qilinadigan mablag'lardan to'liq foydalana olish mumkin. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini yanada kengaytirish, xususiy sektorni jalb qilish va ularning ishtirokida moliyalashtirish risklarini bo'lishish xalqaro investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda xalqaro moliya institutlari bilan ishlashda institutsional salohiyatni mustahkamlash, loyiha boshqaruvi va monitoring tizimlarini raqamlashtirish, mahalliy mutaxassislarni tayyorlash va loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini tizimli baholash bo'yicha islohotlar chuqurlashtirilishi lozim. Mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati va ilmiy muassasalar o'rtasida ochiq muloqot va hamkorlikni kuchaytirish orqali xalqaro investitsiyalarning ijtimoiy inklyuzivlik darajasi oshadi. Eng muhimi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik faqat tashqi mablag' manbai sifatida emas, balki mamlakatning global iqtisodiyotdagi pozitsiyasini mustahkamlovchi strategik mexanizm sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. IMF. "Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2023 Article IV Mission". – Washington D.C.: International Monetary Fund, 2023. – 14 p.
2. EBRD. "Strategy for Uzbekistan 2018–2023". – London: European Bank for Reconstruction and Development, 2018. – 52 p.
3. A.A. Toirov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 318 b.
4. Islamic Development Bank. "Annual Report 2022". – Jeddah: IsDB, 2023. – 122 p.
5. UNCTAD. "World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All". – New York and Geneva: United Nations, 2023. – 260 p.
6. World Bank. "Public Expenditure Review: Uzbekistan". – Washington D.C.: World Bank Group, 2022. – 143 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>